

ILLYUSTRATIV RASM ISHLASH DARSLARIDA TA'LIM SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

O'taboyev Baxtiyor Safarovich

A.Qodiriy nomidagi JDPI, Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasida o'qituvchisi, Jizzax, O'zbekiston
e-mail: utaboyevbaxtiyor@gmail.com

Annotasiya. Umumiy o'rta ta'lim fanlari tarkibidagi "Tasviriy san'at" o'quv fanining Davlat ta'lim standartida kompozitsion faoliyat badiiy ta'limning asosiy turlaridan biri sifatida belgilab qo'yilgan. Tasviriy san'at ta'limining mazkur blokidagi o'quv materiallari asosida o'quvchilarning kompozitsion faoliyatini kompleks tashkil etishda 7-sinfning oxirgi choragi - "Kitobat san'ati" bloki, birinchidan, keng qamrovli imkoniyatlarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: illyustratsiya, rasm, hikoya, ertak, eskiz, muqova

Аннотация. Государственный образовательный стандарт изобразительного искусства в общем среднем образовании определяет композиционную деятельность как один из основных видов художественного образования. Последняя четверть 7 класса, блок «Книжное искусство», предлагает широкий спектр возможностей для комплексной организации композиционной деятельности учащихся на основе учебных материалов этого блока художественного образования.

Ключевые слова: иллюстрация, рисунок, рассказ, сказка, эскиз, обложка.

Annotation. The State Educational Standard for the subject "Fine Arts" in general secondary education defines compositional activity as one of the main types of art education. The last quarter of 7th grade, the Book Art block, offers a wide range of opportunities for the complex organization of students' compositional activities based on the teaching materials in this block of fine arts education.

Keywords: illustration, picture, story, fairy tale, sketch, cover.

Umumiy o'rta ta'lim fanlari tarkibidagi Tasviriy san'at o'quv fanining Davlat ta'lim standartida kompozitsion faoliyat badiiy ta'limning asosiy turlaridan biri sifatida belgilab qo'yilgan. Boshlang'ich sinflarda bu turdagi darslar o'quv dasturiga ko'ra namunaviy topshiriqlarda keltirilgan mavzular bo'yicha amalga oshiriladi. Tasviriy san'at ta'limining mazkur blokidagi o'quv materiallari asosida o'quvchilarning kompozitsion faoliyatini kompleks tashkil etishda 7-sinfning oxirgi choragi - Kitobat san'ati bloki, birinchidan, keng qamrovli imkoniyatlarni taqdim etadi. Ikkinchidan, kitobat san'ati nafaqat 7-sinf tasviriy san'at ta'limini. Balki, umuman maktab tasviriy san'at ta'limini yakunlovchi qismi bo'lganligi uchun ham o'quvchilarning barcha bilimlarini amaliy tatbiqini baholash mumkin bo'ladi, ya'ni tasviriy san'at ta'limining

uzviylik va uzluksizlik prinsiplari asosida o'quvchilarning Davlat ta'lim standartida belgilangan o'quv kompetensiyalarini egallaganlik darajalarini baholash imkonini beradi. Shuning uchun ham tasviriy san'at darslari uzviyligini ta'minlashda illyustrativ rasm ishlash mashg'ulotlarining imkoniyatlaridan foydalanish diqqat markazida bo'lishi maqsadga muvofiq. Zero, unda tasviriy faoliyatning barcha turlarida o'zlashtirilgan nazariy bilim hamda egallangan amaliy-tasviriy kompetensiyalarni tatbiq etishning didaktik imkoniyatlari mavjud. Ayni paytda ta'kidlash joizki, tasviriy san'at darslarida illyustrativ rasm ishlashda amal qilinishi lozim bo'lgan talablar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarning boshlang'ich hamda 5-6-sinflarda illyustrativ rasm ishlash darslarida o'zlashtirilgan o'quv materiallari asosida shakllantirilgan tasviriy-ijodiy kompetensiyalaridan foydalanish;

- tanlangan yoki tavsiya etilayotgan adabiy manbalar yuzasidan o'quvchilarga kerakli tushuntirish berish. Bunda tanlangan asar syujetining murakkabligi, undan tasviriy kompozitsiya yaratish imkoniyatlarining murakkablashib borishini uzviylik prinsipi asosida bosqichma-bosqich to'ldirib borishni nazarda tutish;

- tanlangan manbaning mazmunini taxlil qilish. Agar boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga, asosan, mazmun jihatidan uncha murakkab bo'lmagan xalq ertaklari syujetlari asosida illyustratsiyalar ishlash tavsiya etilib, o'qituvchi savol-javob vositasida o'quvchilarda illyustratsiya kompozitsiyasi uchun syujet, mavzu tanlashda o'qituvchining tavsiyalari, maslahatlari hal qiluvchi rol o'ynagan bo'lsa, tasviriy san'at ta'limining oxirgi yilida bu tadbirda o'quvchilarga ijodiy faollik va mustaqillik berish tavsiya etiladi;

- illyustrativ rasm ishlash darslarida kitobat san'atining badiiy-grafik elementlarini yaratishga kompleks yondashish. Bu turdagi darslarda o'quvchilarga kitobning strukturasi hamda kitobat san'atiga oid terminlar haqida kerakli ma'lumotlar berish lozim bo'ladi. Agar boshlang'ich sinflarda o'quvchilar faqat illyustratsiya haqida tushunchaga ega bo'lgan bo'lsalar, 7-sinfda ular kitobat san'atining muqova, forzats, frontispis, shmutstitul, titul varag'i, bosh xarf (bosh xarflarning badiylashtirilgan variantlari), zastavka, illyustratsiya, konsovka kabi badiiy-grafik elementlarining lug'aviy ma'nosi. Kitob strukturasi hamda arxitektonikasidagi o'rni va funksiyasi haqida tushunchaga ega bo'lishlari nazarda tutiladi. Bu omillar o'quvchilarni tasviriy san'at ta'limining illyustrativ rasm ishlash turiga uzviylik va uzluksizlik prinsiplari asosida bosqichma-bosqich tayyorlab borish lozimligini anglatadi.

Topshiriqning oxirgi va o'ta muhim bosqichi uch yo'nalishda tashkil etilishi mumkin. Birinchi yo'nalishda o'quvchilarga katta hajmdagi

illyustratsiyalar ishlash tavsiya etilsa, ikkinchi yoʻnalishda jamoaviy faoliyat shaklida kitob maketini ishlash topshirigʻi berilishi mumkin. Ayrim toifaga mansub oʻquvchilarga sanʼatshunoslik yoʻnalishidagi topshiriqlar berilib, ular tarixiy-nazariy manbalarni, shuningdek, kitobat sanʼati sohasida ijod qilgan ayrim rassomlarning hayoti va ijodini oʻrganish va tahlil qilish, umumlashtirish hamda hikoya qilishga tayyorgarlik koʻrish bilan shugʻullanadilar. Birinchi yoʻnalishda ishlaydigan oʻquvchilar bilan dars jarayonini tashkil etishda tasviriy sanʼat taʼlimining kompozitsion faoliyat turidagi didaktik talablarga amal qilinadi: komponovka, rang tuslari, kontrastlik, tasviriy material va vositalar (chiziq (shtrix) turlari — ingichka, qalin, och, toʻq, ularning yoʻnalishlari va shakllari va h.k.), tasvirlash texnikasi, harakat va dinamika, ritm kabi komponentlarga amal qilish talab etiladi.

Ikkinchi yoʻnalishda ishlovchi oʻquvchilarning faoliyati jamoaviy ijodiy faoliyat tarzida tashkil etilib, bu jarayonni tashkil etishda ularning individual-ijodiy qobiliyatlari, tasviriy imkoniyatlari va layoqatlari, qiziqishlari eʼtiborga olinadi. Bu yondashuv shuni anglatadiki, tabiiy ravishda qaysidir oʻquvchi kitobat sanʼatining badiiy-grafik elementlaridan biror bir turini, masalan, bosh harfni naqshinkor shaklda bezashga qiziqsa, boshqasi kichik oʻlchamdagi rasmlar - zastavkalar ishlashga, yana boshqasi esa kattaroq illyustratsiyalar ishlashga qiziqadi. Oʻqituvchining vazifasi oʻquvchilarning bu qiziqishlariga differensial yondashgan holda ijodiy jamoa shakllantirishdan iborat boʻladi. Bu jamoaning ishlarini birlashtirib kitob maketini yasashda oʻqituvchining oʻzi ham ishtirok etadi. Uning natijasi yaxlit kompozitsiya - kitob maketini yaratish bilan yakunlanadi. Dars - ijodiy jarayonning natijasi, shubhasiz, oʻquvchilarda ijodiy koʻtarinkilik, faollik kayfiyatini yuzaga keltiradi. Piravordida ular tasviriy faoliyatning boshqa turdagi topshiriqlarga ham kreativ tarzda yondashishga oʻrganib boradilar.

Uchinchi yoʻnalishda bevosita tasviriy faoliyat koʻrsatishdan koʻra uning tarixi va nazariyasini, ayrim rassomlarning hayoti va ijodini oʻrganishga koʻproq qiziqish bildirayotgan oʻquvchilar bilan qatorda kitob bezovchi rassomlarning hayoti va ijodini oʻrganish bilan shugʻullanadilar. Mazkur yoʻnalishda bir necha rassom tomonidan ishlangan illyustratsiyalarni qiyosiy oʻrganish yaxshi samara beradi. Masalan, Telman Muhamedov hamda Abduboqi Gʻulomovlarning “Oʻzbek xalq ertaklari” hamda “Afandi latifalari” asarlariga ishlangan turkum illyustratsiyalarni qiyosiy-tahliliy oʻrganish metodi asosida oʻquvchilarda illyustrator rassomlarning ijodiy ipdividualligini ochib berish, tavsiflash malakalari shakllantiriladi. Bunday misollarni jahon tasviriy sanʼati, kitob illyustarsiyasi misolida ham koʻplab keltirish mumkin. Mashhur ispan yozuvchisi Servantesning “Don ki xot” asariga turli zamonlarda turli rassomlar

(Xose del Kostil - 8-asr; Gyustav Dore va Onore Dome -19-asr; Xegenbart, Kukriniksilar, Pablo Pikasso - 20-asr) tomonidan ishlangan illyustratsiyalar bunga misol bo'la oladi. Shuningdek, Sharq tasviriy san'atida bir asarga bir necha musavvirlar tomonidan turli davrlarda ishlangan miniatyura-illyustratsiyalar ham qiyosiy tahlil uchun muhim manbaa sifatida illyustrativ rasm ishlash darslarining didaktik imkoniyatlarini boyitadi.

Tasviriy san'at darslarida illyustrativ rasm ishlash darslari didaktik ketma-ketlik, mantiqiy uzviylik va uzluksizlik nuqtai nazaridan quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi va ta'kidlash joizki, bu ketma-ketlikka amal qilish tasviriy san'at darslari samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligi tajribada o'z tasdig'ini topdi.

Tayyorgarlik bosqichi. O'qituvchi illyustrativ rasm ishlash darslariga oldindan tayyorgarlik ko'rib kelish uchun o'quvchilarga topshiriq va tavsiyalar beradi, ya'ni o'quvchilar mazkur darsga kerakli tushuncha va tasavvurlar bilan kelishlari, ular muayyan manbaa va undan illyustrativ rasm ishlash uchun syujetga asos bo'ladigan tasavvurga ega bo'lishlari talab etiladi.

O'qituvchining dars mazmuni va yo'nalishini tushuntirish bosqichi. Bu bosqichda o'quvchilar tomonidan bajariladigan ishlar nimadan boshlanib, qanday yakunlanishi xususida aniq ko'rsatma va tavsiyalar beriladi. Bu bosqichda o'qituvchining ishonchli tavsiyasi, tushuntirishi muhim rol o'ynaydi. Chunki o'quvchi bo'lajak faoliyat haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi uning tasviriy faoliyatini ongli tarzda kechishini ta'minlaydi.

Topshiriq yuzasidan eskizlar ishlash bosqichi. Ma'lumki, har qanday tasviriy faoliyat, u tasviriy san'atning qaysi turi va janrida amalga oshirilishidan qat'i nazar eskizlar ishlashdan boshlanadi. Shuning uchun ham professional rassomlar asar yaratishdan oldi uning g'oyasini kompozitsion yechimga ega bo'lishi uchun eskiz sifatida bir necha variantlar ishlaydilar. Eskizlarda kompozitsiyaning alohida detallaridan tortib, kompozitsiyaning yakuniy yechimigacha hal etib olinadi. Professional tasviriy faoliyatning bu metodidan maktab tasviriy san'at ta'limida ham foydalanish tavsiya etiladi. Agar o'quvchi o'qituvchining oldindan bergan topshirig'iga asosan qoralama-eskizlar ishlab kelgan bo'lsa, ular muhokama qilinib, o'qituvchi tomonidan kerakli tavsiyalar beriladi, tuzatishlar va qo'shimchalar kiritiladi.

O'quvchilarning eskizlar bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirish ham ta'limiy, ham tarbiyaviy ahamiyat nuqtai nazaridan juda muhim tadbir bo'lib, bu omil o'quvchilarni tasviriy faoliyatini to'g'ri tashkil etish imkonini beradi. U mashqlarning ta'limiy ahamiyati shundaki, mazkur jarayonda o'quvchilar tasviriy san'atning ayrim qonuniyatlarini amaliy tatbiqi borasidagi nazariy bilim va amaliy kompetensiyalarini takomillashtirib boradilar.

Tarbiyaviy ahamiyati esa o‘quvchilar ongida yordamchi vositalarning ahamiyati, izlanish jarayonlari yakuniy natijani samarasini ta’minlovchi muhim vosita, omil ekanligini anglab borishlarida o‘z aksini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: O‘zbekistan, 2017. 488 b.
2. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy taxlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent. O‘zbekiston, 2017. 1046 b.
3. Bivalseva M.V. Illyustriruem skazki s radostyu. / “Nachalnaya shkola”. №1 —2003. S. 59-62.
4. Vilde T.N. Illyusgirovaniye narodnix skazok na urokax tematicheskogo risovaniya / “Nachalnaya shkola”. №1 — 2003. S. 57 - 59.
5. Golubeva I. Kniga i obraz. Formirovaniye individualnogo xudojestvennogo yazja / jurnal “Iskusstvo v shkole”. 2009. № 3. S. 14 - 18.
6. Ibragimov A., Sulaymonov A. Kitobat san’atiga oid terminlarning izohli-illyustrativ lugati. - Toshkent: “Fan”, 2007. - 80 b.
7. Kamoliddin Behzod. Albom. Tuzuvchilar: E.Ismoshyuva, 3. Rahimova. - Toshkent: “San’at” nashriyoti, 2000. -40 b.
8. Madraimov A. O‘zbekiston miniatyura san’atini o‘rganish muammolari / Jurnal. “San’at”. 2015,2-son. - 25 — 27-6.
9. Ortiqova, O. (2021). AMALIY MASHG‘ULOTLARNI ZAMON TALABI ASOSIDA TASHKIL QILISH. *Физико-технологического образования, 4(4)*.
10. Шарипов, Ш. С. (2017). Personality model of modern teacher. *Eastern european Scientific Journal–Germany, 93-96*.
11. Шарипов, Ш. С. (2000). Педагогические условия формирования изобразительского творчества студентов (на примере факультетов Труда и профессионального образования)
12. Orishev, Jamshid (2021) "PROJECT FOR TRAINING PROFESSIONAL SKILLS FOR FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION," *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal: Vol. 2021 : Iss. 2 , Article 16*.
13. Тагаев, Х., Убайдуллаев, С., Алкаров, К. Х., & Оришев, Ж. Б. (2016). ПОВЫШЕНИЕ ПАТЕНТНЫХ ЗНАНИЙ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ. In *Современные тенденции развития аграрного комплекса* (pp. 1776-1780).

14. Алқаров, Қ. Х., Ибрагимов, А. Р., & Пардаев, Б. А. (2019). ТЎГАРАК АЪЗОЛАРИНИ ИЖОДҚОРЛИК ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИ ВА БОСҚИЧЛАРИ. *Интернаука*, (20-3), 51-52.
15. Alqorov, Q. (2020). Мухандислик таълимида талабалар техник ижодкорлик қобилияти ривожлантириш технологияси. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
16. Тагаев, Х., Алқаров, Қ. Х., Каримов, О. О., & Юлдашев, М. (2019). Педагогические основы обеспечения стабильности роста и развития системы научно-технического творчества студентов (Модель "Руководитель – Участник - Творческая деятельность"). *Поволжский педагогический поиск*, (2), 112-119.
17. Тагаев, Х., Алқаров, Қ. Х., Артикова, О. Ш., & Мамаджанова, К. А. (2016). ПАТЕНТ-КАК ЯДРО И СТРАТЕГИЧЕСКИЙ ШАГ ВПЕРЕД К НОВЫМ ВЫСОТАМ ТЕХНИЧЕСКОЙ И ИНЖЕНЕРНОЙ МЫСЛИ. In *Современные тенденции развития аграрного комплекса* (pp. 1773-1776).
18. Xudoyberdiyev, P. (2020). TASVIRIY SAN'ATDAN AMALIY MASHG'ULOTLAR BAJARISH JARAYONIDA TALABALARNI AMALIY PYERSPEKTIVADAN FOYDALANISHGA O'RGATISH. *Science and Education*, 1(8).
19. Xudoyberdiyev, P. (2021). RANGTASVIR TARAQQIYOTINING USTUVOR YO'NALISHLARI. *Журнал музыки и искусства*, 2(2).
20. Xudoyberdiyev, P. (2020). TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA FAOLIYAT TURLARI ALOQADORLIGI ASOSIDA TA'LIM SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING METODIK ASOSLARI. *Журнал музыки и искусства*, 1(1).
21. Xudoyberdiyev, P. (2020). European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences: European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. *Архив Научных Публикаций JSPI*.